

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

G'ofurov Hamidulla Xoshimovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti,

Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Tel: +998 99 807 08 83

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, maktabgacha ta'lim, bolalar rivoji, innovatsion metodlar, psixologik rivojlanish.

Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish masalasi ta'lim islohotlarining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ijodiy fikrlash bola shaxsining mustaqil qaror qabul qilish, yangilik yaratish va tafakkur doirasini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun samarali pedagogik va psixologik usullarni qo'llash zarur.

Asosiy qism

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o'yin faoliyati, musiqiy mashg'ulotlar, rasm chizish, ertak to'qish va rol o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bolaning tasavvur doirasini kengaytiradi va tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Masalan, J. Guilfordning "Divergent tafakkur nazariyasi"ga ko'ra, bolalarda muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida turli yechimlarni izlash orqali ijodiy fikrlash shakllanadi.

Pedagogik tajribalarda muallim tomonidan innovatsion o'yin texnologiyalarini, interfaol metodlarni ("Aqliy hujum", "Raqamli o'yinlar", "Rol o'ynash

mashg'ulotlari") qo'llash bolalarning mustaqil fikrlash va yangi g'oyalar ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan ijodiy loyihalar bolaning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish – ularning kelgusidagi ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari uchun asosiy omillardan biridir. Ijodiy fikrlashni shakllantirishda o'yin, musiqiy, tasviriy va interfaol metodlarning uyg'unligi katta ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar tomonidan innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shuningdek oilaviy muhitda ijodkorlikni rag'batlantirish bolalarda ijodiy tafakkurning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. (1991). Imagination and Creativity in Childhood. Soviet Psychology, 28(1), 84–96.
2. Guilford J.P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.
3. Abdullayeva N. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy usullari. Toshkent: TDPU Ilmiy axborotlari.
4. Rasulova D. (2023). Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi. O'zbekiston pedagogika jurnali, №2, 45–49.